

Mintaqa Sanoatini Raqamlashtirishda Davlat Mintaqaviy Prinsiplarini Amalga Oshirishning Muhim Unsuri

Abdusalomova Gulsara G'ulomjon qizi¹

Annotatsiya. Maqolada mintaqa sanoatni raqamlashtirish, davlat mintaqaviy siyosatini amalga oshirishni muhim unsuri e'tirof etilgan. Mintaqa sanoatini raqamlashtirish uchun davlat mintaqaviy siyosatini amalga oshirishdagi chora-tadbirlar muhimligi ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: Mintaqaviy siyosati, sanoatni raqamlashtirish, infratuzilma, konsepsiya, mintaqa sanoati, model, makroiqtisodiy muvazanat, xomashyo bazasi, foydali qazilmalar

Kirish

Sanoatni raqamlashtirish sharoitida makroiqtisodiy balans va barqarorlikni ta'minlash uchun respublika davlat siyosatining amalga oshirilishi juda muhimdir. Ushbu zarurat har qanday mamlakat bir nechta ko'rsatkichlar bo'yicha sezilarli darajada farq qiladigan mintaqalarni o'z ichiga olganligidan kelib chiqadi, jumladan:

- Tabiiy resurslarning mavjudligi (xom ashyo va mineral xom ashyo);
- Aholi zichligi, mehnat resurslarining mavjudligi va sifati;
- Ishlab chiqarish tuzilmasi;
- Ijtimoiy soha ahvoli;
- Yuqori darajada rivojlangan sanoat va madaniyat markazlarigacha bo'lgan masofa.

Bu farqlar ham ob'ektiv, ham sub'ektiv xususiyatlarga ega. Ob'ektiv omillarga tabiiy resurslar va yashash sharoitlarining tengsiz hududiy taqsimlanishi kiradi. Tarixga ko'ra, har bir mamlakat o'z millatining mavjud yashash joyidan foydalanish yo'li bilan shakllangan. Aholining mintaqalar bo'ylab taqsimlanishiga asosan tabiiy boyliklarning turli joylari (mineral zaxiralar, unumdor yerlar, suv manbalari) ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuningdek, sho'rlangan hududlarni rivojlantirishda inson faoliyati, davlat tomonidan e'tibor va ushbu mintaqalarga ko'rsatilayotgan qo'llab-quvvatlash kabi sub'ektiv omillar ham muhim rol o'ynaydi.

Mintaqaviy siyosat qonunchilik va huquqiy asoslarga asoslangan bo'lishi va ijtimoiy talablarga, shuningdek iqtisodiy xavfsizlik va barqarorlik talablariga mos kelishi kerak. Mintaqalar ma'lum darajada iqtisodiy barqarorlik va o'z-o'zini ta'minlashga ega bo'lishlari kerak.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Mamlakatimizning e'tiborga molik olimlari, jumladan, T.M. Axmedov, F.T. Egamberdiev, B. Ruzmetov, X.S. Muxitdinovlarning ilmiy ishlari, shuningdek, davlat mintaqaviy siyosatining raqamlashtirish kontseptsiyasidagi ustuvor yo'nalishlarini keng yoritib berdi.

Tahlil va natijalar

Global tajriba va ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, mintaqaning tabiiy va iqtisodiy potentsialidan samarali foydalanish mamlakat sanoati ichida iqtisodiy o'sishni yo'lga qo'yadigan asosiy omilga aylangan. Chunki islohotlar hududlar va aholi yashash joylaridagi investitsiya loyihalari orqali bevosita amalga oshiriladi. Mavjud tabiiy, mineral va sanoat resurslaridan samarali foydalanish orqali har bir mintaqani kompleks rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi. Biroq, hududlarni kompleks rivojlantirishda bir nechta tizimli masalalar davom etmoqda.

Bu masalalarga mintaqaviy rivojlanishning yagona milliy strategiyasining mavjud emasligi, har bir mintaqa uchun uzoq muddatli rivojlanish konsepsiyalarining mavjud emasligi, mavjud tabiiy va iqtisodiy potentsialning kam foydalanilishi, iqtisodiy o'sishning yangi omillariga o'tishda kechikishlar kiradi.

¹Qarshi Davlat Universiteti Iqtisodiyot fakulteti 1-kurs Iqtisodiyot yo'nalishi talabasi



Dunyo bo'ylab hukumatlar tomonidan hududlarning iqtisodiy rivojlanishini tartibga solishda qo'llaniladigan me'yorlarda ko'plab umumiyliklar mavjud. Biroq milliy xususiyatlar ham mavjud bo'lib, ular iqtisodiy rivojlanishning turli darajalari va aniq mintaqaviy rivojlanish qiyinchiliklari bilan izohlanadi.

MDH davlatlarida, xususan, Rossiya va Qozog'istonda hududni rivojlantirish konsepsiyalarini qabul qilish, hududni tartibga solish uchun maxsus fondlar tashkil etish, maxsus iqtisodiy zonalarini yaratish kabi chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Yevropa Ittifoqi (AQSh) davlatlarida mintaqaviy siyosatning o'rni beqiyosdir. Ushbu siyosatning asosiy yo'nalishlari mustahkam huquqiy bazaning mavjudligi, uzoq muddatli mintaqaviy rivojlanish strategiyalarini amalga oshirish, mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy aloqalar va infratuzilmani maqsadli tartibga solish, aniq hududlarni rag'batlantirishning aniq iqtisodiy mexanizmlarini joriy etishdan iborat.

Yevropa iqtisodiy hamjamiyati doirasidagi mintaqaviy siyosatning roli so'nggi yillarda sezilarli darajada oshdi. Buning natijasida Yevropada integratsion jarayonlarning rivojlanishi yo'lga qo'yildi. O'n yil avval bu EU faoliyatining strategik muhim sohalarida ilgarilab borish uchun zarur bo'lgan qo'shimcha yo'nalish hisoblangan edi. 1980-yillarning oxirlariga kelib u tub mustaqil ahamiyatga ega bo'lgan edi. Maastricht shartnomasi kuchga kirishi bilan EUNing mintaqaviy siyosatni amalga oshirish qobiliyati ancha kengaydi va integratsiya jarayoni doirasida a'zo davlatlar ichidagi alohida mintaqalarning ahamiyati o'sdi. Yevropa Ittifoqi mintaqaviy siyosati quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- Yevropa Ittifoqining eng kam rivojlangan mintaqalarida strukturaviy fond resurslarining konsentratsiyasi, mablag'larning tarqalishini oldini olish uchun qat'iy nazorat bilan. Ushbu fondan moliyaviy ajratmalarning 80%i iqtisodiy rivojlanishda sezilarli darajada ortda qolayotgan mintaqalarga yo'naltirilishi kerak.

- Strukturaviy subsidiyalar to'ldiruvchidir, ya'ni EU institutlari milliy dasturlarni amalga oshirish davomida faqat qo'shimcha manba sifatida resurslarni taqdim etishlari mumkin va ularning aralashuv maqsadlarini mustaqil ravishda aniqlay olmaydilar.

- Yevropa Ittifoqi mintaqaviy siyosatini har bir a'zo davlatning makroiqtisodiy va ijtimoiy siyosati bilan uyg'unlashtirish. EU hokimiyati integratsiyaga yo'naltirilgan harakatlar ushbu davlatlarning iqtisodiy siyosat maqsadlariga zid bo'lmashligini va milliy va mahalliy hokimiyat organlarining muvofiqlashtirilmagan xatti-harakatlari tufayli EU byudjetidan ajratilgan mablag'lar behuda sarflanmasligini ta'minlashi kerak.

- Milliy hududiy dasturlarni amalga oshirish davomida a'zo davlatlar o'rtasida bevosita hamkorlik. Bunga milliy dasturlarning maqsad va usullarida aniqlikni ta'minlash maqsadida tegishli hokimliklar o'rtasida axborot almashinuvi kiradi.

Mintaqaviy dasturlashtirish tizimini rivojlantirishning hozirgi bosqichida yalpi dasturlarni ishlab chiqish va baholash metodikasi indikativ rejalashtirish vositalaridan foydalanishni talab qiladi. Bugungi kunga kelib mintaqaviy dasturlashtirish jahon amaliyotida nazariy tadqiqotlar borasida katta tajriba to'plangan.

Vaqt o'tishi bilan ayrim noishlab chiqarish omillarining iqtisodiy rivojlanishdagi roli o'zgarishi munosabati bilan hududlar rivojlanishi uchun yaratilgan shart-sharoitlar doimiy bo'lib qolmaydi. Shunday qilib, hududiy notenglik mamlakat iqtisodiyotining rivojiga katta ta'sir ko'rsatadi. U, bir tomondan, ishlab chiqarish resurslarining mamlakat hududi bo'ylab joylashuvdagi notenglik bilan, ikkinchi tomondan, alohida omillarning iqtisodiy rivojlanishdagi rolining dinamikasi bilan bog'liq. Shuning uchun har bir mamlakatda tabiiy resurslarga boy, lekin aholisi kam; ularning ikkalasi bilan ham yetarli darajada ta'minlangan; allaqachon va yaqinda o'zlashtirilgan yoki o'zlashtirilayotgan; aholisining soni qayerdadir oshib, qayerdadir kamayib borayotgan; qayerdadir katta yoshdagi aholi guruhi ustunlik qiladigan, qayerdadir ularning ulushi kamayib borayotgan mintaqalar mavjud bo'lishi mumkin.

Mintaqaviy siyosatni ishlab chiqishda bir qator konseptual holatlarni nazarda tutish zarur. Ishlab chiqarish sektorining o'sishini rag'batlantirish yo'li bilan hududlarni qo'llab-quvvatlash lozim; ushbu sektor eng ko'p sonli yangi ish o'rinlarini yaratadi. Davlat o'z navbatida ishlab chiqarish korxonalarini tashkil etish va kengaytirishga, zarur holatlarda – ularni qayta yo'naltirish va takomillashtirishga yordam beradi.

Hozirda O'zbekistonda mintaqaviy rivojlanishni umumiy strategiyasi va aniq rag'batlantirish mexanizmlari ishlab chiqilmagan. Mexanizm sifatida asosan davlat byudjeti doirasida ayrim mintaqalarga subvensiya va dotatsiyalar berishni ko'rsatish mumkin. Shuningdek, mintaqalarni o'rta muddatli




rivojlantirish prognozlari, ayrim hududlar (tarmoqlar) bo'yicha ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish davlat dasturlari ishlab chiqilgan.

Maqsadli yalpi dasturni ishlab chiqish asnosida mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlarini aniqlash jarayonining o'ta muhimligini ta'kidlash zarur. Dasturda belgilanadigan ustuvor yo'nalishlarning to'g'ri tanlanishi barcha sa'y-harakatlar va resurslarni iqtisodiy rivojlanish salohiyatini amalga oshirishga qaratish va bu bilan dasturiy tadbirlarning samaradorligini ta'minlash imkonini beradi.

Biroq amaliyotda dasturiy ishlab chiqish uchun muammolarni tanlash mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojidadagi "kasal" uchastkalar ro'yxati bilan cheklanadi, holbuki, ilmiy asoslangan yondashuvni qo'llagan holda barcha muammolar ichidan ularning hal etilishi mintaq uchun sifat jihatdan yangi istiqbollarni ochib beruvchi muammolarni tanlash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bundan tashqari, aksariyat holatlarda maqsadli yalpi dasturlarni ishlab chiqishda maqsadlar, ustuvor yo'alishlar, indikatorlar va mintaqaviy rivojlanishning tartibga soluvchilari o'rtasida o'zaro bog'liqlik ta'minlaymaydi.

Raqamlashtirishning tarkibiy tuzilishi quyidagi bo'limlarni o'z ichiga oladi. (1-rasm).



Manba: muallif tomonidan ishlab chiqildi

Mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi darjasini baholash jarayonida integral indikatorlardan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.



Xulosa va takliflar

Umuman olganda, mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solish borasidagi xorijiy tajribalarni tahlil qilish natijalari va ularni umumlashtirgan holda O‘zbekiston sharoitida quyidagilardan foydalanish maqsadga muvofiq. Mintaqa sanoatini raqamlashtirishda davlat tomonidan faol qo‘llab quvvatlash zarurlinigi ta’kidlab o‘tishimiz joiz. Bunda to‘g‘ridan-to‘g‘ri moliyalashtirish, grantlar ajratish hamda turli dotatsiyalar berish davlat buyurtmalari hamda xaridlarini davlat tomonidan amalga oshirish lozim bo‘ladi.

Tadqiqot natijalari innovatsion rivojlanish mintaqa sanoati samaradorligini oshirishning muhim omili hamda butun iqtisodiyot o‘shining asosi ekanini ko‘rsatdi. Shuning uchun eng avvalo mintaqada yuqori texnologik tarmoqlarni rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish uchun muhit yaratish lozim.

Mamlakat mintaqalarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning aniq ishlab chiqilgan strategiyasining zarurligi, iqtisodiy islohotlarning milliy modelini hisobga olgan holda nomarkazlashtirish, mintaqalararo integratsiya, atrof-muhitni muhofaza qilish kabi umumiy tendensiyalarga mintaqaviy siyosatni bosqichma-bosqich moslashtirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 5 октябдаги ПФ-6079 сон Рақамли Ўзбекистон - 2030» стратегиясини тасдиқлаш ва уни самарали амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисидаги Фармони».Lex.uz
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги 4947-сон Фармонининг 1-илоvasи «2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси».Lex.uz.
3. Эгамбердиев Ф.Т. Совершенствование структуры производства на внутрирегиональном уровне //Молодой ученый. – 2016. – №. 21-1. – С. 61-63.
4. Mukhitdinov Kh. S., Nosirov B.N. COMMUNICATION AND INFORMATION SERVICES TO THE POPULATION OF THE REGION. Jan.-March. 21 Vol. 11 No.01 SJIF 17.201 & GIF 0.626 ISSN-2249-9512 Journal of Management Value & Ethics
5. Mukhitdinov Kh. S., Rakhimov A.N. EMPIRICAL MODELS WHICH WERE BUILT FOR EACH SECTOR OF THE SERVICE SECTOR TO THE POPULATION OF THE REGION. South Asian Journal of Marketing & Management Research (SAJMMR) <https://saarj.com>.
6. Муҳитдинов Х.С. ва бошқ. Аҳолига хизмат кўрсатиш корхоналарини ривожлантиришни эконометрик моделлаштириш. Монография. – Т.: LESSON PRESS, 2020.
7. Рузметов Б. Комплексное развитие региона в условиях углубления экономических реформ. Автореф. дис.докт. экон. наук. – Ташкент: 1998.

